

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION
SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2025

4-son
(Iyul-Avgust)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

Z. Taxirov	4	Til korpusi: mohiyat, maqsad, mahorat
M. Pardayeva, O'. Odiljonov	7	Umumiy o'rta ta'lim o'qituvchilarida kasbiy so'nish: xalqaro holat va yechimlar tahlili
Z. Dexkambayeva	14	Ta'lim tashkilotlarida inklyuziv muhitni loyihalashning tamoyillari
M. Xalilova	19	Inson kapitalini ta'minlashda tolerantlik munosabatlari
D. Adilova	24	Badiiy pedagogika va virtual muzey integratsiyasi asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish tizimini rivojlantirish
M. Nishanova	27	Andragogik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari
D. Miraliyeva	31	Yangi avlod darsliklarida 4k modeli asosida kompetensiyaviy yondashuv: metodologik va amaliy tahlil
Z. Hojiyeva, T. Isaqulov	34	Bo'lajak o'qituvchilarni samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash tamoyillari
J. Xaliqov	38	Aksiologik yondashuv asosida o'quvchilarda musiqiy didni tarbiyalashning nazariy asoslari
N. Mehmonova	41	O'quvchi yoshlarda innovatsion fikrlashni rivojlantirish (O'zbekiston yoshlar ittifoqi misolida)
N. Sindarova	45	O'quvchilarning chet tili bo'yicha lingvistik kompetensiyalarini kommunikativ va differensial yondashuv asosida rivojlantirish



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

O. Qurbonova	49	Ona tili mazmunini takomillashtirishda lingvometodik yondashuvlar mohiyati
D. Subanova	52	Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatish sifatini ta'minlashni drama-texnologiyalari asosida takomillashtirish
G. Qarshiboyeva	56	Ta'lim jarayonida "She'riy maktublar" janridan foydalanish
S. Xasanova, R. Ziyayev	59	Uglevodorodlarning umumiy tenglamalari bo'yicha masalalar yechish
G. Egamova	63	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integratsion yondashuv asosida tarbiya fanini o'qitishga metodik tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari
M. Yuldasheva	67	Boshlang'ich sinflarda matematik tafakkurni shakllantirish tizimini takomillashtirish



TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

X. Asrorov	71	Xalqaro baholash dasturlari – ijtimoiy-didaktik zaruriyat sifatida
-------------------	----	--



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

M. Ramazonova	75	Artpedagogika – shaxs ma'naviyatini shakllantirishning va rivojlantirishning asosiy yo'nalishi sifatida
O. Jabborova	79	Boshlang'ich ta'lim metodikasini zamonaviylashtirish mexanizmlari

Onaxon JABBOROVA,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, dotsent, (PhD)

BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASINI ZAMONAVIYLASHTIRISH MEKANIZMLARI

Annotatsiya

Maqolada "O'zbekiston-2030" strategiyasida qo'yilgan boshlang'ich ta'limda sifat ko'rsatkichlariga erishish vazifalari ijrosi jarayonida boshlang'ich ta'lim metodikasining yangilanish mexanizmlarini tadqiq etish va uning asosiy mezonlarini belgilash dolzarb haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim metodikasining asosiy yangilanish mexanizmlari tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar. Boshlang'ich ta'lim, metodika, yangilanish, mexanizmlar, xususiyatlar, sifat, samaradorlik, yondashuv, natija.

В статье рассматривается актуальность исследования механизмов обновления методики начального образования и определения ее основных критериев в процессе реализации задач по достижению качественных показателей в начальном образовании, поставленных в стратегии "Узбекистан-2030." Также проанализированы основные механизмы обновления методики начального образования.

Ключевые слова. Начальное образование, методология, обновление, механизмы, характеристики, качество, эффективность, подход, результат.

The article discusses the relevance of researching the mechanisms for updating primary education methodology and defining its main criteria in the process of implementing the tasks of achieving quality indicators in primary education set in the "Uzbekistan-2030" strategy. The main mechanisms for updating the methodology of primary education are also analyzed.

Key words. Primary education, methodology, renewal, mechanisms, characteristics, quality, effectiveness, approach, result.

Boshlang'ich ta'lim metodikasi masalalari bo'yicha mamlakatimizda keyingi 10 yil davomida o'ziga xos yangilanishlar va yangicha mexanizmlar tarkib topish jarayoni kechdi. Bu jarayonda o'ziga xos yangilanishlar va ularning mexanizmlari qisqa muddatda pedagogik tajriba-sinovlardan o'tganligi muhim hodi-sadir. Shu jihatdan bu o'rinda boshlang'ich ta'lim metodikasining asosiy yangilanish mexanizmlarini ta'kidlab o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'lim mazmunida yangilanish mexanizmlari. O'zbekiston Respubli-kasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga binoan mamlakatimizda 2017-yilgacha boshlang'ich ta'lim quyidagi vazifalarni bajarab keldi:

- a) o'quvchilarni yozish, o'qish va hisob savodxonligiga o'rgatish;
- b) o'quvchilarni ta'limning keyingi umumiy o'rta ta'lim bosqichiga tayyorlash;
- v) o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yuksaltirib borish;
- g) oliy ma'lumotli va professional boshlang'ich sinf o'qituvchilari avlodini tayyorlash.

2023-yilda mazkur qonunning yangi tahriri qabul qilindi va unda boshlang'ich ta'limning mazmuni quyidagi yangi vazifalar bilan boyitildi:

- a) boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari, Prezident maktablari va fanlar bo'yicha chuqurlashtirilgan ta'lim muassasalari turlariga tayyorlas
- b) boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqish va layoqatlari asosida ularni individual ta'limga yo'naltirish;

v) boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini aniq, tabiiy va gumanitar fanlar turkumiga bo'lib o'qitish; g) boshlang'ich ta'limda inklyuziv ta'limni kuchaytirish.

Boshlang'ich ta'lim mazmunida bo'lgan bunday yangilanish mexanizmlari uni o'qitish asoslarini ham yangilashni taqazo etdi. Buning natijasida boshlang'ich ta'lim mazmuni chuqurlashdi va bu ta'lim bosqichiga nisbatan mamlakatda umumiy savodxonlikni tarkib toptirish vazifasi yuzaga keldi. Shu tariqa boshlang'ich ta'lim mazmunida bo'lgan yangilanishlar uning metodologik asoslarini qayta ko'rib chiqish jarayonini ham taqazo etdi.

Boshlang'ich ta'lim didaktikasida yangilanish mexanizmlari. Boshlang'ich ta'lim mazmunidagi yangilanishlar uning o'qitish asoslarida ham yangicha mexanizmlarni tarkib toptirishga omil bo'ldi. Buning natijasida keyingi 10 yil davomida boshlang'ich ta'limda o'qitishning quyidagi yangi mexanizmlari amaliyotga joriy etildi:

a) boshlang'ich ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsion vositalarga asoslangan turli va rang-barang innovatsion texnologiyalar joriy etildi;

b) boshlang'ich sinf o'quvchilarining layoqati va qiziqishlariga ko'ra ularni fanlar turkumlari bo'yicha guruhlashtirib o'qitish jarayoniga o'tildi;

v) boshlang'ich ta'limda qo'shimcha ta'lim dasturlari va individual ta'lim shakllari keng qo'llanila boshlandi;

g) oliy pedagogik ta'lim yo'nalishida o'qishning 4+2 shakli amalga kiritilib, unda bo'ljak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini bevosita amaliyot bilan bog'liq holda tayyorlash tizimi tashkil etildi;

d) boshlang'ich ta'lim didaktikasida individual yondashuvlarning ustuvorligi shakllandi;

e) amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga professional toifa berish tizimi joriy etildi.

Boshlang'ich ta'lim didaktikasidagi bunday yangilanish mexanizmlari boshlang'ich ta'lim va oliy boshlang'ich ta'lim yo'nalishida o'qitishning onlayn va oflayn shakllaridan uyg'un foydalanishni shakllantirdi. Shu tariqa mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim didaktikasida yangilanish mexanizmlari tezkor ro'y berdi.

Ayni paytda, boshlang'ich ta'lim didaktikasidagi bunday yangilanish mexanizmlari batafsil ilmiy tadqiqotlar asosida yetarli darajada baholanmadi. Buning natijasida boshlang'ich ta'lim didaktikasidagi har qanday yangilanish jarayonlari samarali vositalar sifatida qabul qilina boshlandi. Bunda ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich ta'lim bo'yicha turli metodikalarning joriy etilganligi va ularning rang-barangligi boshlang'ich ta'lim didaktikasidagi yangilanish mexanizmlarini chuqur tahlil etishni taqozo etmoqda. Buning natijasida mavjud muammolarning yechimini topish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

Boshlang'ich ta'lim metodologiyasidagi yangilanish mexanizmlari. Boshlang'ich ta'lim metodologiyasida o'ziga xos yangi mexanizmlar tarkib topdi. Bu mexanizmlar boshlang'ich ta'lim mazmuni va uning didaktikasidagi yangilanishlar hosilasi hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim metodologiyasida shakllangan quyidagi yangilanish mexanizmlarini alohida eslatib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) boshlang'ich ta'lim jarayoniga yangi hodisa – TIMSS, PISA va STEAM kabi xalqaro baholash dasturlari talablarini joriy etila boshlandi;

b) boshlang'ich ta'limning o'quv dasturlari ana shunday xalqaro baholash dasturlariga moslashtirildi va gumanitar fanlarning an'anaviy o'qitish modellari saqlab qolindi;

v) boshlang'ich ta'limning innovatsion texnologiyalari bo'yicha bir qator pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy tadqiqotlari yaratildi va ularda tadqiqotchilarning rang-barang nazariy-metodik yondashuvlari taqdim etildi;

g) oliy ma'lumotli va professional boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning hududlar kesimi bo'yicha ta'minoti yangi tizimi tarkib topdi;

d) Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy salohiyatini shakllantirish va ularning "Innovatsion ta'lim pedagogik klasteri" kabi yangi metodikalar bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni yo'lga qo'yildi.

Bularning barchasi boshlang'ich ta'lim metodologiyasida keskin va qizg'in yangilanishlar jarayoni bo'lganligini ko'rsatadi. Lekin bu masalalar maxsus pedagogik tadqiqotlar vositasida tahlil qilinib, ularning yutuqlari va kamchiliklari ko'rsatib berilmadi. Shu tariqa boshlang'ich ta'lim mazmuni, uning didaktikasi va metodologiyasida bo'lgan yangilanish mexanizmlari mazkur masalalarda yaxlit tadqiqotni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bu masala bo'yicha biz tomonidan amalga oshirilayotgan tadqiqotda quyidagi masalalar tahlil qilinganligi va ularni pedagogik tajriba-sinovdan o'tkazish jarayoni kechayotganligini eslatib o'tish joiz:

- boshlang'ich ta'lim metodikasining yangilanish mexanizmlari nazariy masalalarini o'rganish va umumlashtirish;

- boshlang'ich ta'lim metodikasida didaktik yangilanishning maqbul shakllarini aniqlash va ulardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish;

- boshlang'ich ta'lim metodologiyasidagi yangilanish mexanizmlarini boshlang'ich ta'lim davlat standartlari va talablariga asosida saralash, ularning eng samaradorlik yo'nalishlarini amaliyot uchun taqdim etish;

- boshlang'ich ta'lim jarayoniga kiritilgan yangi texnologiya, tarbiya va oliy boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, boshlang'ich ta'limda tarbiya fani, texnologiya, boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalar o'quv fanlarining metodik mexanizmlarini tadqiq etish va uyg'unlashtirish;

- boshlang'ich ta'lim metodikasining samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish.

Bunday yondashuv boshlang'ich ta'lim metodikasidagi yangilanish mexanizmlarini umumlashtirish, ularning yutuqlarini belgilash va u asosda boshlang'ich ta'limning sifat samaradorligiga erishish vositalariga ega bo'lish imkoniyatlarini beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim metodikasidagi yangilanish mexanizmlarini nazariy-metodik jihatdan tadqiq etish va uning vositasida bunday yangi omillardan foydalanish vositalarini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Bu ta'lim tizimida va uning boshlang'ich ta'lim bosqichida sifat ko'rsatkichlariga erishishning o'ziga xos omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi. – T., 2023
2. Jabborova O.M. Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T., 2024
3. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. // www.ziynet.uz
4. Umarova Z.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning zamonaviy metodikasi. – T., 2024